



FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



FARG'ONA VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*


*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2024-yil 1-aprel holatiga viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 39,0 mingtani tashkil etdi (ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 32,6 mingta). O‘tgan yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar sonining o‘sishi 92,3 foizni (jumladan, kichik korxonalar va mikrofirmalar 90,3 foiz) tashkil etdi.


*Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar
fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1-aprel holatiga ko‘ra, birlikda.*




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2024- yil yanvar-mart holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog‘liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

Boshqa turlar

2024- yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda 203 taga ko‘payganligini ko‘rish mumkin.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda, mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar 259 taga ko‘paygan.

Hududlar kesimida




2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo




Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish





Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar



2024- yil 1- aprel holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni so'ngi besh yilda (36 274 ta) 2 775 taga ko'payganni quyidagi sohalarida korxonalar sonining sezilarli ko'paygani bilan ifodalash mumkin: savdo – 9 613 tadan 13 572 taga (o'sish 3 959 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatishda – 825 tadan 1 216 taga (o'sish 391 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda – 1 758 tadan 2 071 taga (o'sish 313 ta).

Hududlar kesimida




2024- yil yanvar-mart holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda.

2024- yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 1 639 ta bo'lib, shundan:


- mikrofirmalar va kichik korxonalar 1 630 ta;
- yirik korxonalar 9 tani tashkil etdi.

Hududlar kesimida




2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish




Savdo




Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish





Axborot va aloqa

Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Boshqa turlar


Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2024- yil 1- aprel holatiga 32,9 mingtaga yetib, 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,9 foizni tashkil etdi (2,4 mingta). Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 41,3 foiz, sanoat – 20,2 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 4,2 foiz, qurilish – 7,6 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 6,3 foiz, tashish va saqlash – 4,4 foiz, axborot va aloqa – 1,9 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 3,2 foiz, boshqa turlari – 10,9 foiz.

Hududlar kesimida




2024- yil yanvar-mart holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko'rsatish





Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.


Shunda, 2024- yil yanvar-mart oylarida savdo sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2020-yilning mos davriga nisbatan 620 tadan 705 taga (o'sish 85 taga), yashash va ovqatlanish – 53 tadan 104 taga (o'sish 51 taga) ko'paydi.

Hududlar kesimida




2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat



Qurilish



Savdo




Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish





Boshqa turlar

Hududiy kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Farg'ona shahrida (17,0 foiz), Qo'qon shahri (10,6 foiz), Marg'ilon shahri (8,4 foiz), Oltiariq (5,9 foiz) va Uchko'prik (5,0 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.

Hududlar kesimida




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

2024- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda

Hududlar kesimida

So‘x tumani	131
Farg‘ona shahar	115
Toshloq tumani	108
Qo‘shtepa tumani	104
Farg‘ona tumani	101
Dang‘ara tumani	93
Oltiariq tumani	91
Yozyovon tumani	88
Quva tumani	85
Quvasoy shahar	80
Bag‘dod tumani	74
Beshariq tumani	67
O‘zbekiston tumani	54
Buvayda tumani	53
Uchko‘prik tumani	48
Rishton tumani	46
Qo‘qon shahar	38
Furqat tumani	33
Marg‘ilon shahar	29



O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot

yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta‘minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.

Baliq ovlash va akvakultura




O‘rmonchilik va yog‘och tayyorlash

Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarida xizmat ko‘rsatish

2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda


Hududlar kesimida

Qo'qon shahar	791
Farg'ona shahar	750
Marg'ilon shahar	594
Uchko'prik tumani	493
O'zbekiston tumani	393
Dang'ara tumani	369
Rishton tumani	349
Bag'dod tumani	316
Quva tumani	299
Oltiariq tumani	296
Toshloq tumani	287
Buvayda tumani	279
Farg'ona tumani	255
Qo'shtepa tumani	238
Quvasoy shahar	197
Beshariq tumani	197
Yozyovon tumani	189
So'x tumani	182
Furqat tumani	178



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi. 2019-yilning mos davri bilan solishtirilganda o'sish sur'ati 96,8 foizni tashkil etdi.

Sanoat korxonalarini soni jami korxonalar va tashkilotlarning 17,0 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 95,0 foizini ishlab chiqarish sanoati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish 78,7 foiz), 2,6 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o'sish 95,6 foiz), 1,0 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish (o'sish 80,7 foiz) va 1,4 foizini elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (o'sish 101,1 foiz) tashkil etgan.



2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Farg'ona shahar	694
Qo'qon shahar	210
Marg'ilon shahar	193
Uchko'prik tumani	134
Oltiariq tumani	125
Bag'dod tumani	110
Farg'ona tumani	110
Toshloq tumani	105
Quva tumani	103
Rishton tumani	89
Quvasoy shahar	85
Yozyovon tumani	85
Dang'ara tumani	82
Qo'shtepa tumani	76
Buvayda tumani	71
So'x tumani	71
O'zbekiston tumani	66
Beshariq tumani	62
Furqat tumani	56

2 527

2024

2023

2 927

3 683

2022

2021

3 323

2 961

2020

O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 53,8 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 84,5 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 17,1 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 106,1 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 29,1 foiz ulushni va 80,7 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.

432


Fuqarolik obyektlarini qurish

735

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

1 360


Bino va inshootlar qurish



2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Farg'ona shahar	1 856
Qo'qon shahar	1 511
Marg'ilon shahar	1 238
Uchko'prik tumani	736
Toshloq tumani	702
Oltiariq tumani	690
Farg'ona tumani	659
Quva tumani	641
Dang'ara tumani	626
Buvayda tumani	609
O'zbekiston tumani	590
Quvasoy shahar	587
Qo'shtepa tumani	543
Rishton tumani	479
Bag'dod tumani	460
Beshariq tumani	456
So'x tumani	431
Furqat tumani	405
Yozyovon tumani	353



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,7 foizi yoki 13 531 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 57,7 foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda o'sish sur'ati 93,3 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 32,7 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 102,4 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 9,6 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 95,6 foizni tashkil etdi.

1 293

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

4 444

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


7 835

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Farg'ona shahar	504
Qo'qon shahar	173
Rishton tumani	138
Oltiariq tumani	134
Marg'ilon shahar	126
Bag'dod tumani	102
Quva tumani	98
Farg'ona tumani	97
O'zbekiston tumani	91
Quvasoy shahar	87
Toshloq tumani	80
Qo'shtepa tumani	80
Dang'ara tumani	78
Uchko'prik tumani	61
Furqat tumani	55
Buvayda tumani	51
Beshariq tumani	50
Yozyovon tumani	34
So'x tumani	32



2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'sish sur'ati 2020-yilning mos davriga nisbatan 117,8 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 6,1 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 93,9 foiz ulushini tashkil etdi.

127

Yashash bo'yicha xizmatlar



1 944


Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar



2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida


Farg'ona shahar	231
Qo'qon shahar	63
Marg'ilon shahar	61
Buvayda tumani	44
Oltiariq tumani	36
Rishton tumani	32
Qo'shtepa tumani	29
Quva tumani	24
Toshloq tumani	22
Bag'dod tumani	17
O'zbekiston tumani	14
Quvasoy shahar	11
Farg'ona tumani	10
Beshariq tumani	10
Dang'ara tumani	9
Uchko'prik tumani	9
So'x tumani	9
Furqat tumani	8
Yozyovon tumani	4



2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 16,5 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 94,6 foizni tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 43,4 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 56,6 foizni tashkil etdi.


Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning 40,1 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 101,2 foizni tashkil etdi.



2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Farg'ona shahar	283
Qo'qon shahar	140
Farg'ona tumani	74
Marg'ilon shahar	72
Buvayda tumani	57
Oltiariq tumani	57
O'zbekiston tumani	57
Toshloq tumani	56
Beshariq tumani	55
Uchko'prik tumani	54
Quva tumani	53
Qo'shtepa tumani	45
Rishton tumani	41
Dang'ara tumani	41
Bag'dod tumani	32
So'x tumani	30
Furqat tumani	30
Yozyovon tumani	24
Quvasoy shahar	15



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi – 1 037 ta yoki 85,3 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

91,6 foiz korxonalar sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri kelib, o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 104,7 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 3,2 foizni tashkil etib, o'sish sur'ati 105,4 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 5,2 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 87,5 foizni tashkil etdi;

63

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

39




1 114

Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Oltiariq tumani	330
Farg'ona shahar	249
Qo'qon shahar	166
Marg'ilon shahar	87
Toshloq tumani	66
O'zbekiston tumani	56
Quvasoy shahar	56
Farg'ona tumani	54
Quva tumani	52
Beshariq tumani	46
Dang'ara tumani	43
Uchko'prik tumani	40
Qo'shtepa tumani	35
Rishton tumani	32
Buvayda tumani	30
Bag'dod tumani	26
Furqat tumani	26
Yozyovon tumani	26
So'x tumani	23



2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 3,7 foiz ulushini tashkil etdi.

2023- yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish sur'ati 91,8 foizni tashkil etdi;

ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining o'sish sur'ati 94,8 foizni;

pochta va kuryerlik yo'nalishi 79,2 foizni tashkil etdi;

havo transporti yo'nalishida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 1 tani tashkil etdi;




Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma‘lumot

2024- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda

Tadbirkorlik subyektlari soni

Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi



Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma‘lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta‘minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

2024- yil yanvar-mart holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat




Qurilish




Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish





Axborot va aloqa

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Boshqa turlar

Mas'uliyati cheklangan jamiyati – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'liydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Hududlar kesimida




2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan 32,9 mingta tijorat korxonasi va tashkilotlarining 21,3 mingtasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to'g'ri keladi. Mazkur jamiyatlar viloyatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Sohalar kesimida o'sish sur'atlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, eng yuqori ko'rsatkich sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatishda – 112,0 foiz, savdoda – 103,2 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda – 100,8 foizni tashkil etdi.



Hududlar kesimida

Farg'ona shahar	3 952
Qo'qon shahar	2 863
Marg'ilon shahar	2 051
Toshloq tumani	1 120
Uchko'prik tumani	1 101
Oltiariq tumani	1 029
Dang'ara tumani	988
O'zbekiston tumani	967
Qo'shtepa tumani	903
Quva tumani	902


Farg'ona tumani	812
Quvasoy shahar	784
Buvayda tumani	765
Yozyovon tumani	619
Beshariq tumani	607
Bag'dod tumani	512
Furqat tumani	461
Rishton tumani	437
So'x tumani	398

2024- yil yanvar-mart holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat




Qurilish




Savdo



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa

Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Boshqa turlar

Xususiy korxonalar – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonalar tabdirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxonalar o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

2024- yil yanvar-mart oylarida sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatishda yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 2023- yilning mos davriga nisbatan 6 taga ko'paygan.

Hududlar kesimida

Rishton tumani	25	6,9%	Uchko'prik tumani	4	1,2%
Farg'ona shahar	19	1,7%	Qo'qon shahar	4	1,4%
Farg'ona tumani	14	3,2%	Quva tumani	3	0,8%
Bag'dod tumani	13	3,0%	Toshloq tumani	3	1,2%
So'x tumani	13	3,2%	Beshariq tumani	2	0,8%
Qo'shtepa tumani	9	6,0%	Furqat tumani	2	1,2%
Buvayda tumani	9	2,3%	Yozyovon tumani	2	1,3%
Oltiariq tumani	7	1,7%	O'zbekiston tumani	1	0,5%
Quvasoy shahar	6	2,8%	Dang'ara tumani	1	0,6%
Marg'ilon shahar	5	1,2%			

2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni so'ngi besh yilda 65,3 foizni tashkil etdi.



Xususiy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo 44,0 foiz, sanoat 18,1 foiz, yashash va ovqatlanish 8,6 foiz, qurilish 5,6 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish 4,6 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 3,4 foiz, axborot va aloqa 1,9 foiz, tashish va saqlash 1,5 foiz, boshqa turlar 12,3 foiz.

Hududlar kesimida

Farg'ona shahar	1 110
Farg'ona tumani	439
Bag'dod tumani	435
Marg'ilon shahar	431
Oltiariq tumani	410
So'x tumani	401
Buvayda tumani	394
Quva tumani	385
Rishton tumani	360
Uchko'prik tumani	330

Qo'qon shahar	278
Toshloq tumani	252
Beshariq tumani	241
Quvasoy shahar	216
O'zbekiston tumani	195
Furqat tumani	171
Dang'ara tumani	168
Yozovon tumani	154
Qo'shtepa tumani	150

2024- yil yanvar-mart holatiga ko'ra, birlikda



Oilaviy korxonalar – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonalar ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxonalar ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyekti. Oilaviy korxonalar faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.


Hududlar kesimida

Rishton tumani	41	8,0 %	Qo'qon shahar	13	4,1 %
Oltiariq tumani	28	6,4 %	Furqat tumani	12	5,9 %
Farg'ona tumani	24	11,2 %	Beshariq tumani	11	5,5 %
O'zbekiston tumani	20	7,1 %	Dang'ara tumani	9	3,2 %
Farg'ona shahar	19	4,0 %	Quvasoy shahar	9	3,9 %
Quva tumani	17	10,2 %	Uchko'prik tumani	8	3,7 %
So'x tumani	16	12,6 %	Buvayda tumani	7	4,5 %
Toshloq tumani	16	9,4 %	Qo'shtepa tumani	5	3,5 %
Bag'dod tumani	15	6,2 %	Yozyovon tumani	5	7,5 %
Marg'ilon shahar	15	4,8 %			

2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni so'ngi besh yilda 1 510 taga ko'paygan.

Bu esa quyidagi sohalaridagi korxonalar: savdoda – 578 tadan 1 698 taga (o'sish 1 120 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda – 437 tadan 697 taga (o'sish 260 ta) sonining sezilarli oshishi bilan izohlanadi.

Hududlar kesimida


Rishton tumani.	514	Farg'ona tumani	215
Farg'ona shahar	479	Furqat tumani	202
Oltiariq tumani	436	Beshariq tumani	199
Qo'qon shahar	316	Toshloq tumani	170
O'zbekiston tumani	281	Quva tumani	167
Dang'ara tumani	279	Buvayda tumani	157
Marg'ilon shahar	257	Qo'shtepa tumani	142
Bag'dod tumani	241	So'x tumani	127
Quvasoy shahar	233	Yozyovon tumani	67
Uchko'prik tumani	218		

Yangi tashkil etilgan chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot


2024- yil yanvar-mart holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni


Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Sanoat



Qurilish




Savdo



Yashash va ovqatlanish



Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg'armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo'linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Hududlar kesimida

Farg'ona shahar

11

Quvasoy shahar

2

Qo'qon shahar

7

Qo'shtepa tumani

1

Bag'dod tumani

2

Farg'ona tumani

1

Uchko'prik tumani

2


Marg'ilon shahar

1


2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Chet el investitsiyasi ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar 2020-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 113,3 foizni tashkil etdi.

Yetakchi o'rinni 121 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Rossiya Federatsiyasi egallagan. Bu viloyatda chet el investitsiyasi ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 24,9 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, Farg'ona viloyati iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Janubiy Koreya (ulushi 6,4 foiz), Qirg'iston (ulushi 5,6 foiz), Tojikiston (ulushi 3,7 foiz) va Qozog'iston (ulushi 2,3 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

Hududlar kesimida

Farg'ona shahar	156	Dang'ara tumani	15
Qo'qon shahar	64	Bag'dod tumani	14
Quvasoy shahar	34	Furqat tumani	12
Marg'ilon shahar	30	Rishton tumani	9
Uchko'prik tumani	27	Toshloq tumani	8
Beshariq tumani	20	Buvayda tumani	7
O'zbekiston tumani	20	So'x tumani	6
Farg'ona tumani	19	Qo'shtepa tumani	5
Quva tumani	18	Yozyovon tumani	5
Oltiariq tumani	17		

2024- yil yanvar-mart holatiga ko'ra, birlikda



O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalar uchun qulay huquqiy muhit yaratish bo'yicha keng qamrovli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatning strategik geografik joylashuvi, boy va xilma-xil tabiiy resurslari o'sish uchun ulkan imkoniyatlarni namoyon etadi. O'zbekiston hukumati o'z fuqarolarining farovonligini oshirish, biznesni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish maqsadida, chet el investitsiyalarini ko'paytirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shniçilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, chet el investitsiyasi ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 240 tasi qo'shma korxonalar, 246 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

xorijiy korxonalar

qo'shma korxonalar



2024-yil 1-aprel holatiga chet el investitsiyasi ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 486 ta korxonalardan 240 tasi qo'shma korxonalar, 246 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshiriyulotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatayulotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- dekabrda "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, soʻralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qoʻyilgan.



Statistik registrlarni yuritish
va tizimli xizmat
koʻrsatish boʻlimi
Tel.:(73) 244-96-46